

# PEDAGOGIK MAHORAT

5  
2021



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**5-son (2021-yil, oktabr)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2021**

**#5. 2021. PEDAGOGIK MAHORAT • ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО • PEDAGOGICAL SKILL**  
**MUNDARIJA**

|                                                                                                                                                                                             |          |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|
| <b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA</b>                                                                                                                                                            | <b>7</b> |
| Marg'uba MIRQOSIMOVA. Masofaviy ta'lim sharoitida integratsiyalashgan o'qitish jarayonlarini tashkil etish                                                                                  | 7        |
| Bobirjon ERGASHEV. Professional ta'lim tizimi bitiruvchilarining kasbiy ko'nikmalarini egallashlarida pedagogik strategiyalar                                                               | 14       |
| Sevara ADIZOVA. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim muassasasining o'quv jarayonidagi shart-sharoitlar tahlili                                                   | 19       |
| Rita PAKHRATDINOVA. Designing students' creative activity on national crafts as a factor of learning                                                                                        | 24       |
| Lola DJURAYEVA. Oliy ta'lim tizimi o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishda "flipped classroom" texnologiyasidan foydalanish                                         | 30       |
| Tohir NAZAROV. Chaqirigacha harbiy ta'lim yo'nalishi subyektlarining didaktik jarayonlardagi loyihaviy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi                                              | 34       |
| Shabon FARMONOVA. Ta'lim mazmunini loyihalashning didaktik imkoniyatlari                                                                                                                    | 37       |
| Rustam SARIYEV. Sirtqi ta'lim shakli talabalarini o'qitish jarayonida elektron ta'limning roli va ahamiyati                                                                                 | 41       |
| Nargiz DJUMAEVA. "Синквейн" как эффективный метод развития устной и письменной речи студентов                                                                                               | 46       |
| Firuz NURULLOYEV. Zamonaviy o'qitish usullari: an'anaviy va zamonaviy ta'limning afzalliklari                                                                                               | 51       |
| Xikmat BOBOMIRZAEV, D. UMURZOKOV, Naфocat AKMALOVA. Особенности развития компетентно-педагогической профессии                                                                               | 57       |
| Bobir ZOKIROV. O'zbekiston Respublikasi va Xitoy Xalq Respublikasining madaniy-ilmii hamkorlik tarixi: muammolar va yechimlar                                                               | 60       |
| Mavluda KALANDAROVA. XIX asr Xiva xonligi solnomalarida ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy muhitning yoritilishi                                                                          | 64       |
| Sherzod ABDURAHMANOV. Talaba-yoshlarni vatanparvarlikka o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari                                                                                              | 69       |
| Xol XUDOYQULOV, Gulchexra ABDULLAYEVA, Sardorbek SHARIFZODA. O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuvdan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari | 78       |
| Manzura YULDASHEVA. Muqaddas ilohalar - salomatlik tayanchi                                                                                                                                 | 83       |
| Dilrabo XUDOYQULOVA. Badiiy obrazlar vositasida o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash                                                                                             | 85       |
| Abror ASKAROV. Multimediali darslarni loyihalashning ayrim jihatlar                                                                                                                         | 88       |
| Madinaxon TO'RABOYEVA. Pedagogik fanlar misolida talabalarining shaxsiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlari                                                                 | 91       |
| Iroda ASLOHOVA, Ozoda XODIEVA. Сравнительная оценка эффективности применения интерактивных методов обучения                                                                                 | 94       |
| Mahmud ASHUROV. Milliy g'urur va iftixor, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik tushunchalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik mazmun mohiyati                                     | 97       |
| Anvar ERGASHEV. К вопросу духовно-нравственного воспитания с внедрением метод проекта в условиях дистанционного обучения                                                                    | 103      |
| Zebo QOSIMOVA. Ta'lim jarayonida axborotlarga ratsional yondashuv ko'nikmalarini shakllantirish                                                                                             | 108      |
| Zafar ASRAYEV. O'qitishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish                                                                                                                         | 110      |
| Mirjalol JO'RAYEV. Elektr yuritmalari tezligini rostdash usullari                                                                                                                           | 114      |
| D. XOTAMOVA. Bo'lajak o'qituvchilarda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida                                                                                    | 118      |
| Hasan TO'XTAYEV. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari                                                               | 121      |
| Azamat SAIDOV. Sog'lom turmush tarzi to'g'risidagi tasavvurlar shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari                                                                                      | 124      |
| Qutlug'murod QODIROV. Islom madaniyati tarixini o'rganishda pedagogik va psixologik fikrlarni tahlil etishning o'ziga xos jihatlari                                                         | 128      |
| M. Kushanova. O'smirlar agressiv xulq-atvorining xorij va mamlakatimizda o'rganilganlik holati                                                                                              | 131      |
| Alisher SHARIPOV. O'smirlarda (11-15 yosh) irodaviy fazilatlarini tarbiyalashning ijtimoiy-ma'naviy asoslari                                                                                | 137      |
| J. SHUKUROV. Bo'lajak ofitserlar faoliyatida emotsional intellektning roli                                                                                                                  | 140      |
| Ziyodullo ELOV. Qobiliyatning shaxsi psixologiyasidagi o'rni va Danning-Kryuger effekti                                                                                                     | 143      |
| Olmos AVEZOV. Ekstremal vaziyatlarda oilaga psixologik xizmat ko'rsatish amaliyoti                                                                                                          | 145      |

Ziyodullo ELOV

Buxoro davlat universiteti  
psixologiya kafedrası o'qituvchisi,  
psixologiya fanlari bo'yicha  
falsafa doktori (PhD)

## QOBILIYATNING SHAXSI PSIXOLOGIYASIDAGI O'RNI VA DANNING-KRYUGER EFFEKTI

*Maqolada shaxsning individual xususiyatlaridan biri bo'lgan qobiliyat haqida fikr yuritilib, kishilarning o'ziga nisbatan yuqori yoki past darajada baho berishining sabablari haqida aytib o'tiladi.*

*Kalit so'zlar: qobiliyat, Danning-Kryuger effekti, adekvat, tajribasizlik, mashq.*

*В статье рассматривается способность человека отражать свои способности и причины, по которым люди его более или менее ценят.*

*Ключевые слова: способности, эффект Даннинга-Крюгера, адекватность, неопытность, упражнения.*

*The article examines a person's ability to reflect his abilities and the reasons why people value him more or less.*

*Key words: abilities, Dunning-Kruger effect, adequacy, inexperience, exercise.*

*Bilgan odam gapirmaydi,  
gapirayotgan odam bilmaydi.*

*Lao-Tzi*


**Kirish.** Zamonaviy psixologiyada shaxsning individual psixologik xususiyatlaridan biri bo'lgan qobiliyat tushunchasi hali yetarli tadqiq etilmagan jarayonlardan biri hisoblanadi. Bugun qobiliyatga psixologlar, bilim, ko'nikma, malakalardan farqli o'laroq, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ish uddalay olishidagi subyektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual-ruhiy va jismoniy xususiyati, insonning individual salohiyati, imkoniyatlari – deb ta'rif berishadi.

**Asosiy qism.** Qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko'nikma, malakadan farq qiladi. Qobiliyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunish lozim.

Albatta, qobiliyat shaxsning u yoki bu sohada imkoniyatlari va uning darajasini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Negaki, kishi mehnat faoliyatining qay darajada bo'lishi va uning o'z imkoniyatlarini qanday baholashi bu qobiliyatga bog'liq.

Tajribali shaxslarga o'z imkoniyatlariga aslidagidan pastroq baho berishi yoki qobiliyatsiz shaxsning o'ziga yuqori baho berish xususiyati mavjud bo'lib, bu holat psixologiyada **Danning-Kryuger effekti** deb nomlanadi.

Mazkur holat 1999-yilda amerikalik psixologlar Djustin Kryuger va Devid Danninglar tomonidan ilmiy asoslangan. Danning-Kryuger effektiga ko'ra, tajribasi past insonlar xato xulosalar chiqarishadi hamda muvaffaqiyatsiz qaror qabul qilishadi. Ular muvaffaqiyatsizliklari noto'g'ri qarorlar va tajribasizlik natijasi ekanini anglay olishmaydi va o'zlarining yetarli bo'lmagan qobiliyatlariga ishonishadi.



**1-rasm**

Chindan yuqori tajribaga ega insonlar esa o'zidagi qobiliyatlarga adekvat baho berish bilan birga, o'z mahoratiga biroz shubha bilan qarashga moyil bo'ladi. Ular o'zlari bajara oladigan ish-faoliyatni boshqalar ham qunt bilan o'rgansa, oson qila oladi, deb o'ylashadi.

Tajribasizlik va bir vaqtning o'zida aqlsizlik u yoki bu sohaning asoslarini bilmaslikdan kelib chiqadi. Birgina, stol tennisida o'ynash uchun sharikni urish kerakligini bilamiz. Lekin uni qay tarzda, qanday pozitsiyada, qachon, qanday zarb bilan urish asoslaridan bexabarligimiz – **tajribasizligimiz** bu o'yinda pand beradi. Shunga qaramay, tennis sohasida tajribasiz odamlar hali biror marta o'ynab ko'rmay turib, tennis juda oson o'yin deb o'ylaydi, yaxshilab shug'ullansa, bemalol eplashiga, hatto g'olib chiqishiga haddan tashqari ishonadi.

**Muhokamalar va natijalar.** Ilm, fan, ta'lim, madaniyat, texnika, kommunikatsiya kabi boshqa sohalarda ham tajribasizlik, kerakli bilim-ko'nikmaga ega bo'lmaslik shu yo'nalishda bildiradigan kichik fikrimizdan to muayyan faoliyatimizgacha omadsizlik olib keladi.

Danning-Kryuger effektiga ko'ra, insonlar o'zi tajribasiz bo'lgan sohada quyidagilarga moyil bo'lishi isbotlangan:

- 1) o'z qobiliyatlarini yuqori baholashadi;
- 2) boshqalarning yuqori darajadagi qobiliyatini to'g'ri chamalay olishmaydi;
- 3) o'zlarining tajribasiz va bilimsiz ekanligini anglab yetishmaydi;
- 4) biror professional o'quv yoki treningdan o'tgach, o'qib-o'rgangach, avvalgi tajribasizligini tushunishadi. Ya'ni odamlar tajribasizlik sababligina bilmagan ishiga qo'l urib yoki tushummagan sohasida fikr bildirib, ahmoqona vaziyatga tushishadi.

Bunday vaziyatga tushmaslik uchun esa bugun psixologlar tomonidan quyidagilar tavsiya etiladi:

Ko'proq o'qib-o'rganish va o'z ustida muntazam mashq qilib borish lozim. Bu kishi tanlagan, fikr yoki faoliyat yuritayotgan sohasida tajribali inson (professional ekspert) bo'lishiga katta yordam beradi.

Shuningdek tadqiqotda, shaxsning o'z qobiliyatlaringizga tez-tez shubha bilan qarab turishi lozimligi alohida ta'kidlangan bo'lib, bu kishining o'ziga ortiqcha baho berib, oqibatda ahmoqona vaziyatlarga tushishini oldini olishga ko'maklashadi.

**Xulosa.** Kishilar har doim shaxsiy tajribasining mantiqan to'g'ri baholashga yordam beradigan mezonlarni topishi va ular asosida bilim-ko'nikmalarini baholab borishlari lozim. Bu shaxsga kerakli sohadagi darajasini aniq belgilab, shunga yarasha harakat qilishiga turtki beradi.

**Adabiyotlar**

1. Djasting Kryuger va Devid Danning tadqiqotlari natijalari tahlili. 1997 – 1999-yil internet ma'lumotlari asosida.
2. G'oziyev E. Psixologiya. -T.: "O'qituvchi", 1994.
3. G'oziyev E. Pedagogik psixologiya asoslari. -T.: "O'qituvchi", 1998.